

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti boshlig‘i  
polkovnik **M.X.Rustambayev**  
2025-yil 07/09 02

**“TASDIQLAYMAN”**  
“Ijtimoiy fikr” respublika  
jamoatchilik fikrini o‘rganish  
Markazi direktori **N.X.Raximova**  
2025-yil 07/09

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va va “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida**

### **MEMORANDUM**

Bundan-buyon matnda “Tomonlar” deb yuritiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi o‘zaro hamjihatlik va hurmat tamoyillarini e’tirof etib, hamkorlikni rivojlantirish va kuchaytirishdan o‘zaro manfaatdor ekanliklarini anglagan holda, quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

#### **1-modda**

##### **Memorandumning maqsadi**

Mazkur Memorandumning maqsadi ta’lim, ilm-fan kabi faoliyat sohalarida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda ushbu sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ilg‘or usullarini joriy etishdan iborat.

#### **2-modda**

##### **Hamkorlik yo‘nalishlari**

Tomonlar mazkur Memorandumdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish yo‘lida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlik qiladilar:

- mavjud innovatsion (tadqiqot) markazlar va maxsus yo‘nalishlardagi ilg‘or laboratoriyalarning ilmiy tajribalari va ishlanmalari bilan o‘zaro tanishish hamda laboratoriya uskunalari va ishlanmalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy uslub va metodikalarni qo‘llagan holda, har ikkala tomondan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan o‘zaro tanishish hamda yangi dasturiy ta’minotlarni tahlil qilish va o‘rganish jarayonini yo‘lga qo‘yish;
- ilmiy xodimlarni ilmiy-amaliy eksperimentlarni amalga oshirishning samarali usullari bilan tanishtirish hamda ilmiy (dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola va h.k.) ishlarni tayyorlash bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yanada chuqurlashtirish;

- axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish, ta'limning ilm-fan va ishlab chiqarish (amaliyot) bilan integratsiyalashuvini ta'minlash borasida olib borilayotgan tadbirlar bilan o'zaro yaqindan tanishish hamda ushbu yo'nalishdagi zarur bilim va tajribalarni o'rganish;
- tomonlarning davriy nashrlarida ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarni chop etish, shu jumladan, hammualliflikda ilmiy izlanishlar olib borish;
- ilmiy-metodik qo'llanmalar va tavsiyalarni tayyorlash hamda o'quv jarayonida ulardan foydalanishni tashkil etish;
- sohaviy ilmiy hamkorlik yo'nalishlarini shakllantirish;
- sohaviy innovatsion texnologiyalar, ishlanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;
- ilmiy xodimlar ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiya, seminar va anjumanlar tashkil qilish;
- madaniy aloqalarni rivojlantirish;
- amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan holda tomonlarning vakolatiga kiruvchi boshqa yo'nalishlarda hamkorlik qilish.

### **3-modda** **O'zaro aloqalar tartibi**

Tomonlar ushbu Memorandum yo'nalishlarida hamkorlikni amalga oshirishda rasmiy munosabatlarni istisno qilmagan holda bevosita aloqa qiladilar.

### **4-modda** **Sarf-xarajatlar**

Ushbu Memorandumni amalga oshirish bilan bog'liq moliyaviy xarajatlar har bir holat yuzasidan tomonlar o'rtasida alohida kelishiladi.

Mazkur Memorandum bilan tartibga solinmagan boshqa tashabbus va loyihalarni moliyalashtirish masalalari Tomonlar o'rtasida oldindan muhokama qilinishi va kelishuvga erishilishi lozim.

### **5-modda** **Memorandumga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

Tomonlarning o'zaro roziligiga asosan mazkur Memorandumga yoki uning bir qismiga ushbu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan, alohida bayon bilan rasmiylashtiriladigan o'zgartirish va yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Har qanday o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar ularning kuchga kirguniga qadar ushbu Memorandum asosida amalga oshirilishi boshlangan loyihalar ijrosiga ta'sir etmasligi lozim.

## 6-modda Nizolarni hal qilish

Ushbu Memorandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo'llashda vujudga keladigan har qanday nizolar tomonlar o'rtasida maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan do'stona ravishda hal qilinadi.

## 7-modda Yakuniy qoidalar


Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil davomida amal qiladi. Tomonlar o'zgacha kelishmagan taqdirda, bu muddat o'z-o'zidan keyingi 5 (besh) yillik muddatga uzayadi.

Har bir tomon ixtiyoriy ravishda ushbu Memorandumning amal qilishini tugatish huquqiga egadir. Bunday tugatish ikkinchi tomon rasman xabardor qilinganidan 1 (bir) oy o'tib kuchga kiradi.

Memorandumning tugatilishi, uning tugatilishidan oldin boshlangan birgalikdagi loyihalarning ijrosiga daxl qilmaydi.

Mazkur memorandum Toshkent shahrida davlat tilida, teng huquqiy kuchga ega bo'lgan ikkita asl nusxada tuzildi.


Jamoat xavfsizligi universiteti  
"Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-  
psixologik ta'minlash" kafedrasi  
boshlig'i  
podpolkovnik

  
Z. Alimardonov

2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

"Ijtimoiy fikr" respublika  
jamoatchilik fikrini o'rganish  
Markazi Ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha direktor  
o'rinbosari

V. Alekseyeva

2025-yil "\_\_\_"  \_\_\_\_\_